

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2024 Vol. 2 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Elyor Xonnazarov

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbay-jon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Shoiri Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Yekaterina Shirinova, Dilrabo Elova, Xurshida Kadirova, Jumana-zar O'rozov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Aynur Cəfərova

Qədim “Manas” dastanında işlənmiş vokal və konsonantlar..... 5

Екатерина Ширинова

Конфликтное общение: факторы, причины, некоторые пути
преодоления 13

Jumanazar O‘rozov

Lingvokriminalistik tadqiqning metod va metodologiyasi xususida... 20

Nərmin Rəhimova

Əbdülhəmid Çolpanin həyat və yaradıcılığı 29

Sabohat Allanazarova, Dilrabo Elova

Sentiment tahlil uchun matndan valentlik, hissiyot va boshqa ta’sirchan
holatlarni aniqlash 38

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH

Oqila Turakulova

Xorijiy davlatlarning o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish
tajribasi 48

Fotima Xamidullayeva

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda dialoglarning ahamiyati 58

Azoda Beysenova

“Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalariga o‘zbek tili darslarida
ichki ish hujjatlarini o‘rgatish 66

Nilufar Odiljonova

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda media ta’limdan
foydalanish 76

LINGVOKULTUROLOGIYA

Həsənova Ülkər

Azərbaycan xalqının təşəkkülü prosesi 83

LINGVOPOETIKA

Nasim Xo‘jayev

Tilshunoslikda badiiy matn tadqiqi 92

SOTSILOGIYA

Snegur Margarita, Xasan Akramov

Language in the national identity stucture 99

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Xurshida Kadirova

O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini..... 109

KORPUS LINGVISTIKASI

Elyor Xonnazarov

Davomli hozirgi zamon grammatik shakllari annotatsiyasi.....126

AMALIY PSIXOLOGIYA

**Арай Аманова, Саодат Мухамедова, Эльмира Абдраимова,
Альфия Женисова**

Особенности взаимоотношения родителей и учащихся средней школы в инклюзивной среде..... 134

**Гульжанар Джумажанова, Илхом Аслонов, Оксана Беленко,
Гульнар Турсунгожинова**

Психологические условия формирования профессионального мышления студентов вуза..... 144

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH

XORIJIY DAVLATLARNING O'QUVCHILARIDA
MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
TAJIRIBASIOqila Turakulova¹**Abstrakt**

Mazkur maqolada xorijiy davlatlarning o'quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish tajribasi, xalqaro miqyosda xorijiy davlatlarning kitob o'qishga bo'lgan munosabatini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar, ularning natijalari, turli davlatlarda kitob o'qishga bo'lgan munosabatni aniqlashda amalga oshirilayotgan monitoringlar yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Mutolaaga ta'sir ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy omillarni inobatga olish va shu omillar orqali bolalarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, o'tkazilgan tajriba hamda tadqiqotlarni amalda tatbiq etish yuzasidan taklif va tavsiyalar haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *mutolaa, tajriba, tadqiqot, kitobxonlik malakasi va madaniyati, ilg'or an'analar, ta'lim dasturlari, ommaviy kitobxonlik, ko'chma kutubxona.*

KIRISH

Jahon miqyosida bugungi kunda yoshlar o'rtasida kitob o'qishni targ'ib qilish, ularning faol kitobxon bo'lishiga erishishda davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki asosida bu yo'nalishda dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni izlab topish an'ana tusini olmoqda [Xafizov 2017, 17].

Xorijiy davlatlarda kitob o'qishning bunday innovatsion usullari jamiyatda kitobxonlikka bo'lgan ijobiy munosabatni yuzaga

¹ *Turakulova Oqila Amirkulovna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-pochta: toraqulova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-7783-6418

Iqtibos uchun: Turakulova, O.A. 2024. "Xorijiy davlatlarning o'quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish tajribasi". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari.2(5): 48-57.

DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/EJKB2861

keltiradi. Davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki aholini, ayniqsa, yoshlarning mutolaaga qiziqishini oshiradi.

Rivojlangan davlatlarda mavjud sharoitda asosiy e'tibor kutubxona-axborot tarmoqlarini rivojlantirish, ularni an'anaviy va zamonaviy kitoblar hamda kitob mahsulotlari bilan boyitish, aholi, shu jumladan, yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan targ'ibotning innovatsion shakl, metod va vositalarini yaratishga qaratilgan. Hozirgi kunda "Aholi jon boshiga yalpi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchilikni olgan Shveysariya kutubxona-axborot tarmoqlari soni bo'yicha ham birinchi o'rin"ni egallamoqda. "Besh million aholi yashaydigan Finlyandiyada 1500 ommaviy kutubxona, shuncha kitob tarqatuvchi punkt, 250 ta ko'chma kutubxona (bibliobus) ishlab turibdi" [<http://ufq.uz/2017/11/13/548>].

Alohida qayd etib o'tish kerakki, "Finlyandiyada barcha bolalarning o'rganishi va rivojlanishi uchun teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakat madaniyat jamg'armasi tomonidan uyushtirilgan 1,2 million evro miqdoridagi qiymatga ega bo'lgan aksiyaga ko'ra 2019-2021 yillarda tug'iladigan barcha chaqaloqlar sovg'a sifatida kitob oladi [kitobxonlik- madaniyatini-yuksaltirish-maqsadida-kitob-bayrami-o'tkazildi].

Kitoblarni chop etish va ularning savdosini izchil yo'lga qo'yishda Norvegiya tajribasi ham boshqa davlatlar uchun namuna bo'la oladi. Mazkur davlatda ushbu soha "ijtimoiy-madaniy rivojlanishning alohida yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Mualliflar, nashriyotlar hamda davlat o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa mavjud bo'lib, unga ko'ra yangi kitob chop etilsa, uning 1000 nusxasi (agar bolalar adabiyoti bo'lsa 1500 donasi) hukumat tomonidan sotib olinadi. Sotib olingan kitoblar mamlakatdagi barcha kutubxonalarga teng taqsimlangan holda tarqatiladi" [<https://kun.uz/news/2019/01/21/bolalarsiz-bolalar-kutubxonasi>].

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasida global axborotlashuv muhitida aholi, xususan, yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni qaror toptirishga qaratilgan keng ko'lamli ijtimoiy harakatlar negizida targ'ibotning innovatsion vositalarini izlash etakchi o'rin tutadi. Ayni o'rinda bir qator davlatlarning bu boradagi tajribalarini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiq sanaladi.

ASOSIY QISM

AQSh kitob nashr etuvchilari Kengashining vakili bo'lgan

Patrika Jurning qayd etishicha, Amerikada kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish yo'lida amalga oshirilgan choralardan biri – kitob o'qilayotgan holatni ifodalovchi reklama plakatlarida taniqli shaxslar qiyofasining berilishi sanaladi [https://mel.fm/chteniye/9635178-to_like_to_read].

Xorijiy davlatlarda bunday chora-tadbirlar jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni qaror toptirishning muhim jihatlari aks ettirib, milliy tajribada keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Janubiy Koreyaning Seul shahrida “Kitob o'qishni rivojlantirish va uning kitob bozoriga ta'siri” nomli kitob ko'rgazmasida “Chu San Deyli” gazetasining muxbiri Kim Ki Chul xonadonlardagi mehmonxonani kutubxonalarga aylantirish kitobxonalar sonini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi. Kim Ki Chulning taklifi ham ancha e'tirofga loyiqdir, chunki xonadonda oila a'zolari ko'p bo'sh vaqtlarini birgalikda aynan uyning mehmon kutadigan zalida o'tkazishadi. Oilalarga xonadonlarning mehmon kutadigan zallarida qulay va shinam kutubxona tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib borilishi lozim.

Vetnamda “kitob ko'chalari” tashkil etilgan bo'lib, ushbu ko'chalarda doimiy ravishda turli mavzularda chop etilgan kitoblarning mualliflari bilan uchrashuv, seminar va konferentsiyalar uyushtiriladi... Nashriyotlar va kitobxonlar o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlash yo'lida ko'plab yuridik va jismoniy shaxslar oilaviy kutubxonalarni hamda o'zlari joylashgan hududlarda “kitobxonlik muhiti”ni hosil qilishda faollik ko'rsatmoqda[Решения, <https://azbyka.ru/deti/ne-zastavit-a-privit-lyubov-k-chteniyeu>].

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda umummilliy kompleks dasturlar ishlab chiqilyapti. Ularda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari, kutubxonalar, ta'lim muassasalari, ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlik subyektlari, sohadagi fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ko'rish ko'zda tutiladi. Bunda kitobxonlikning qadri va ahamiyati haqida ijtimoiy ongni shakllantirish, aholi turli qatlami o'rtasida mutolaa madaniyatini manzilli qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, nashriyotlar faoliyatini takomillashtirish, jamiyatning intellektual, ma'naviy va madaniy ehtiyojlariga to'liq javob beradigan kitob bozorini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyo tajribasiga ko'ra, bunday maqsadli dasturlar hamda kontseptsiyalar qabul qilinishi ijobiy natija beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarga ijtimoiy, pedagogik hamda madaniy kutubxona xizmatini ko'rsatish ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan muhim soha sanaladi. Markaziy Osiyoda milliy kutubxonani barpo etish va uning fondini tarixiy hamda zamonaviy asarlar bilan to'ldirishga qaratilgan umummilliy harakatning yorqin namunasi sifatida Tojikiston tajribasini misol qilib keltirish o'rinlidir.

Hozirda kutubxona fondida 6 milliondan ortiq kitob, gazeta-jurnal, elektron materiallar saqlanadi. Ochiq kitob shaklida qurilgan to'qqiz qavatli bino (uzunligi 167 metr, balandligi 52 metr, umumiy maydoni 45 ming kvadrat metr) Markaziy Osiyodagi eng katta kutubxona sanaladi. Bu erga kiraverishda tojik xalqining 22 nafar atoqli fan, adabiyot va siyosat arbobi byusti joylashgan. Ular sirasida Firdavsiy, Sa'adiy, Hofiz, Rudakiydan tortib Mirzo Tursunzoda va Emomali Rahmongacha bor.

Imkoniyati cheklangan kishilar uchun alohida bo'lim xizmat qiladi: bu erda ovozli nashrlar va Brayl alifbosidagi kitoblar saqlanadi. Milliy kutubxonaning yangi binosi qurilishi boshlangan kun – 4-sentyabr mamlakatda “Kitob kuni” deb e'lon qilingan [<https://daryo.uz/k/2019/01/04/dovrugi-doston-dushanbe-yoki-mojaz-poytaxt-mojizalari>].

Jahonning bir qator rivojlangan davlatlarida “Kitob ko'rgazmasi”, “Kitob bayrami”, “Kitob yarmarkasi” kabi tadbirlarning tashkil etilishi an'anaga aylangan. So'nggi yillarda mazkur an'ana Markaziy Osiyo davlatlarida ham keng yoyilmoqda. Jumladan, 2018 yilning 25-28 aprel kunlari Qozog'iston Respublikasining Ostona shahrida tashkil etilgan III Evroosiyo xalqaro kitob yarmarkasida o'nlab mamlakatlarning adiblari, nashriyotlar va kitob do'konlarining vakillari ishtirok etdi [<http://xs.uz/uz/post/iii-evroosiyo-khalqaro-kitob-korgazma-yarmarkasi-dunyo-zhavohirlari-ummonining-namojishi>]. Kitob o'qish va kitobxonlikning o'ziga xos targ'iboti bo'lgan mazkur tadbir, turli davlatlarda faoliyat yuritayotgan adiblari, nashriyotlar va kitob do'konlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

Fuqarolarda kitob o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishda kitob savdosi ham muhim o'rin tutadi. Global axborotlashuv sharoitida kitob savdosini tashkil etishning zamonaviy shakli – Internet do'koni faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Kitob savdosini tashkil etuvchi “LitRes”, “Labirint”, “OZON” kabi Internet do'konlari faoliyati ham “global axborotlashuv va texnologiyalashuv sharoitida yangi urfdagi an'ana” [Xafizov 2017, 20] sifatida vujudga keldi.

So'nggi yillarda yuzaga kelgan yangi internet hodisa – chellenj (ingl. “challenge” – daʼvat) ham aholi, yoshlar o'rtasida kitob o'qish va kitobxonlik g'oyalari axborot texnologiyalari orqali keng targ'ib etishda alohida o'rin tutmoqda. Chellenj – o'yin shaklidagi bahsning qandaydir harakatlar asosida amalga oshirishni taklif qilish hisoblanadi. Ayni vaqtda yoshlarning kitobxonlik faoliyatini kuchaytirish, rag'batlantirish maqsadida “nashriyotlar, kitob do'konlari, ijtimoiy tashkilotlarning tashabbuslariga muvofiq chellenj yo'lga qo'yilmoqda”[Xafizov 2017, 22].

Mutolaaga qiziqishning susayishi, o'z navbatida, aholi savodxonligi darajasining pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat'iy chora-tadbirlar ko'rilmogda[Abdullayev, <https://kun.uz/13172148>].

Rivojlangan xorijiy davlatlarda “uzoq aholi punktlarida yashaydigan hamda kutubxonalarga borish imkoniyati cheklangan fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida ko'chma kutubxona xizmatini rivojlantirish, kutubxonalaro abonoment va hujjatlarni elektron yetkazib berishni, kutubxona resurslaridan masofaviy foydalanishni yo'lga qo'yish, ushbu ziyo maskanlarida individual, guruh hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil qilishni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash, yuksak badiiy asarlarga oshno qilish, mamlakatimizdagi kutubxonalar imijini yaxshilash bo'yicha aniq mexanizmlar”ini yaratish kabi takliflar ilgari surilmogda.

Yozuvchi va millioner Stiv Sibold dunyoning eng boy odamlaridan ba'zilari bilan 30 yildan ortiq suhbatlashdi va ularning ko'pchiligini mutolaaga bo'lgan muhabbat birlashtirib turishini aniqladi. “O'rta sinf romanlar, tabloidlar va ko'ngilochar jurnallar o'qiydi. Badavlat odamning xonadoniga kirsangiz, birinchi ko'zingizga tashlanadigan narsalardan biri uni muvaffaqiyatga olib kelgan ulkan kutubxona bo'ladi”, - deydi yozuvchi. Mashhur milliarderlarning ko'pchiligi ushbu nuqtai nazarni tasdiqlaydi. Masalan, Bill Geyts yiliga 50 ga yaqin kitob o'qiydi, Uorren Baffett ish kunining 80 foizini mutolaa uchun sarflaydi. Ilon Maskdan u raketa qurishni qanday o'rganganligi haqida so'rashganda, u “Men kitob o'qiyman” deb javob bergan[<http://betakrorbuxoro.uz/uz/2018/07/06>].

Xalqaro miqyosda turli davlatlarda kitob o'qishga bo'lgan munosabatni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshiriladi. Ana

shunday tadqiqotlardan biri "NOP World" xalqaro reyting agentligi tomonidan o'tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2016-yilda haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxatida Hindiston yetakchi o'rinni egallagan. Ushbu davlatda aholi haftasiga o'rtacha 10,7, Tailandda 9,4, Xitoyda 8, Filippinda 7,6, Chexiyada 7,4, Rossiya-da 7,1, Shvetsiyada 6,9, Fransiya-da 6,9 va Vengriya-da 6,8 soat kitob o'qiladi [Abdullayev, <https://kun.uz/13172148>].

Shu bilan birga qator agentliklar izchil ravishda jahon mamlakatlari aholisining kitobga bo'lgan talab va ehtiyojini o'rganib boradi. Agentlik tomonidan e'lon qilingan jahonda kitobga bo'lgan talabni o'rganishga doir tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi 30 yilda bir nomdagi kitob mahsulotlarini chiqarish uch baravar, adadi bo'yicha 4 baravar ko'paydi. Bugungi kunda -dunyoda har yili qariyb bir million nomda kitoblar chop etiladi. Masalan, AQShda kishi boshiga 10 ta, Rossiyada 9,5 ta, Frantsiyada 5 ta, Xitoyda 3,5 ta kitob bosilmoqda [Abdullayev, <https://kun.uz/13172148>].

Yel universitetida olib borilgan tadqiqotlar natijalarining tasdiqlashicha, bir haftada 3,5 soat yoki bir kunda o'rtacha 30 daqiqa kitob o'qish o'lim xavfini 17 foizga qisqartiradi. Haftasiga 3,5 soatdan ko'p kitob mutolaa qiluvchilar uchun esa o'lim xavfi 23 foizga qisqarishi ma'lum bo'ldi. Tadqiqotchilarning fikricha, kitoblar "bilim ko'nikmalari"ni oshirish bilan bir qatorda "hamdardlik, ijtimoiy idrok va hissiy intellektni rivojlantirish"ga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xorijiy davlatlarning o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish tajribasi hamda jamiyat va shaxs kitobxonligi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari kitob o'qishda katta yoshdagi kishilarning intellektual, psixologik va fiziologik rivojlanishi uchun yanada ijobiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Keltirilgan ma'lumotlar sirasida kitob o'qishning bolalar va o'spirinlarning umumiy psixologik, intellektual, hattoki, fiziologik rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar ham mavjud. Chunonchi, kitob o'qish: asabni tinchlantiradi (Sasseks universiteti (AQSh) olimlarining yondashuvlariga ko'ra, kitob o'qitish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan; buning uchun kuniga bor-yo'g'i 6 daqiqa vaqt sarflash talab etiladi); hissiyotlarni (xuddi duo yoki she'r o'qish kabi) tarbiyalaydi (badiiy asar o'qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshi tushunadi); miya faoliyatining faolligini oshiradi, miyadagi asab tolalarining sonini ko'paytiradi (Emori universiteti (AQSh)ning tadqiqotchilariga ko'ra,

kitob o'qish natijasida insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo'ladi); kommunikativlik, tinglash, yozish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (Obafemi Avolau universiteti (AQSh) pedagoglari bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini aniqlashgan, darhaqiqat, ko'p kitob o'qigan shaxslarning aksariyati she'r, hikoya, esse yoki ilmiy maqolalarni yuqori saviyada yoza oladi; badiiy asarlarni, ayniqsa, she'r-larni ifodali o'qish, sahna asarlarini yuksak mahorat bilan ijro etish qobiliyatiga ega); ijtimoiy faollikni oshiradi; badiiy didni o'stiradi; xorijiy tillarni o'rganishni osonlashtiradi (boshqa tillarni o'rganishda yangi so'zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi); ko'p kitob o'qiydigan bolalar darslarni yaxshi o'zlashtirishadi; yaxshi hikoyanavisga aylanadi (qancha ko'p kitob o'qilsa, shaxsning hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi), ota-onalar va farzandlarning o'zaro munosabatlari yaxshilanadi.

Yuqori darajadagi aqliy salohiyat insonning tashqi ko'rinishini ham go'zallashtiradi. Har qanday mavzuda qiziqarli suhbat qura olish va o'z bilimini namoyish etish suhbatdoshining mehrini qozonishga yordam beradi.

Mavzuga doir tadqiqotlarda shaxsning kitob o'qishga bo'lgan munosabati ikki xil: birinchidan, tuzilmaviy (kitob o'qishning o'zaro aloqador elementlardan tarkib topgan qandaydir murakkab tuzilmaga ega sifatida tasavvur qilish), ikkinchidan, amaliy (alohida ruhiy jarayonlar – diqqat, xotira, tafakkur, hissiyot va ularning kitob o'qish jarayonida namoyon bo'lishi) yondashuv borligi aytiladi [Zbarovskaya 1997, 156]. Mana shu yondashuv asosida insonda o'qish orqali bilim, ko'nikma, malaka shakllanadi. Tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi idrok bilan belgilanadi.

Bolalarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida oila va unda tashkil etilayotgan tarbiya masalalari muhim sanaladi. Qachonki oilaning katta yoshli a'zolari kitobxon bo'lsa, oilada kitobga nisbatan kattalarning ijobiy munosabati aks etsa, oila davrasida kitoblar va ularda bayon etilgan voqelik, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinsa, ularga nisbatan munosabat bildirilsa, oila a'zolari tomonidan yangi chop etilgan asarlar haqidagi ma'lumotlar o'zaro o'rtoqlashilsa, uning juda ham qiziqarli ekanligi e'tirof etilsa, bolalarda ham kitob o'qishga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyoj yuzaga keladi.

Fikrimizcha, yoshlikdan shakllantirilgan kitobga nisbatan ijobiy munosabat kishining butun hayoti davomida o'z izini qoldiradi. Qolaversa, bu o'rinda uy kutubxonasining tashkil etilishi

ham kutilgan natijalarni qo'lga kiritish uchun sharoit yaratadi.

O'quvchi-yoshlar va umuman, aholi o'rtasida kitobxonlik malakasi va madaniyatini shakllantirishda davlat o'ziga xos o'rin tutadi. Bu uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: 1) oliy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarni to'g'ri o'qishga o'rgatishdan iborat; 2) otalalar o'rtasida ma'rifiy targ'ibotni tashkil etish; 3) bolalar yozuvchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Mazkur fikrlarga qo'shilgan holda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Mutolaa madaniyati asoslari" maxsus o'quv kursini o'qitish, umumiy o'rta ta'lim muassasalari va akademik litseylarda "O'qish va matnni tushunish savodxonligi" bo'yicha mustaqil ta'lim mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy davlatlarda yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish yo'lida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ilg'or an'analarni o'rganish natijalari, ana shu maqsadda bir qator ta'lim dasturlari ishlab chiqilganligi, kitobxonlikni yoshlar o'rtasida doimiy ravishda monitoring qilib borilishi mutolaani rivojlanishiga katta yordam beradi.

Adabiyotlar

- Хафизов, Д.М. 2017. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф.дис... канд.наук.культурологии. Челябинск. – 27 с.
- Орлова Э.А. Рекомендации по повышению уровня читательской компетенции в рамках Национальной программы поддержки и развития чтения // http://ifapcom.ru/files/publications/rekomend_obr_1.pdf.
- Збаровская Н.В. 1997. Формирование культуры чтения в общедоступных библиотеках: Дисс...канд.пед.наук. – СПб.– С. 156.
- Денисова С.А. 2008. Родители о детском чтении и роли библиотек. Родительское собрание по детскому чтению. С.30
- Безруких М.М. 2008. Детское чтение как педагогическая проблема. М. – № 13. – С. 21-22.
- Turakulova O.A. 2023. Адабиёт дарсларида аналитик таҳлил асосида ўқувчиларда мутолаани ривожлантириш// O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5).
- Китоб ўқимаган халқ жоҳилликка маҳкум // <http://ufq.uz/2017/11/13/548>.
- “Болаларсиз” болалар кутубхонаси // <https://kun.uz/news/2019/01/21/bolalarsiz-bolalar-kutubxonasi>.
- Чтение. 10 советов, как привить ребёнку любовь к чтению и книгам // https://mel.fm/chteniye/9635178-to_like_to_read.
- Рощеня Д.Н. Не заставить, а привить любовь к чтению // <https://azbyka.ru/deti/ne-zastavit-a-privit-lyubov-k-chteniyu>.

Абдуллаев А. Мутолаа маданияти интеллектуал салоҳиятни белгилаб беради // <https://kun.uz/13172148>.
Китоб ўқишнинг 21 фойдаси // <https://zamin.uz/life-style/14196-kitob-oqishning-21-foydasi.html>.

THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN DEVELOPING A READING CULTURE AMONG STUDENTS

Turakulova Oqila¹

Abstract

This article describes the experience of foreign countries in developing a reading culture among students, conducting research aimed at determining the attitude of foreign countries towards reading books at the international level, opinions on ongoing research to determine attitudes towards reading books in different countries at the international level and recommendations for the implementation of this experience and research.

Key words: *reading, experience, research, reading skills and culture, advanced traditions, educational programs, public readings, mobile library.*

References

- Xafizov D.M. 2017. Sotsiokulturnie praktiki povisheniya chitatelskoy aktivnosti molodeji: stimuliruyushie vozmojnosti modi: Avtoref. Diss....kand.nauk.kulturalogii . – Chelyabinsk – 27 s.
- Orlova E.A. Rekomendatsii po povisheniyu urovnya chitatelskoy kompetentsii v ramkax Natsionalnoy programmi podderjki i razvitya chtenii// http://ifapcom.ru/files/publications/rekomend_obr_1.pdf.
- Zbarovskaya N.V. 1997. Formirovanie kulturi chteniya v obshedostupnix bibliotekax: Diss....kand.ped.nauk. – SPb. – S.156.
- Denisova S.A. 2008. Roditeli o detskom chtenii i roli bibliotek //J. Roditelskoe sobranie po detskomu chteniyu.– S.30.
- Bezrukix M.M. 2008. Detskoy chtenie kak pedagogicheskaya problema. M.: – № 13. – S. 21-22.

1 Turakulova Oqila Amirkulovna – Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical sciences, associate professor at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: torakulova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-7783-6418

For citation: Turakulova, O.A. 2024. "The experience of foreign countries in developing a reading culture among students". Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 2 (5): 48-57.

DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/EJKB2861

- Turakulova O.A. 2023. Adabiyot darslarida analitik tahlil asosida o'quvchilarda mutolaani rivojlantirish. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5)
- Китоб ўқимаган халқ жоҳилликка маҳкум // <http://ufq.uz/2017/11/13/548>.
- “Болаларсиз” болаларкутубхонаси // <https://kun.uz/news/2019/01/21/bolalarsiz-bolalar-kutubxonasi>.
- Чтение. 10 советов, как привить ребёнку любовь к чтению и книгам // https://mel.fm/chteniye/9635178-to_like_to_read.
- Рощеня Д.Н. Не заставить, а привить любовь к чтению // <https://azbyka.ru/deti/ne-zastavit-a-privit-lyubov-k-cheniyu>.
- Абдуллаев А. Мутолаа маданияти интеллектуал салоҳиятни белгилаб беради // <https://kun.uz/13172148>.
- Китоб ўқишнинг 21 фойдаси // <https://zamin.uz/life-style/14196-kitob-oqishning-21-foydasi.html>.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 29.03.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Nashr b.t. 10,375.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №3.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.